

“1 DAN 10 GACHA SONLARNING O‘QILISHI VA YOZILISHI”

Angren shahar 35-umumiy o‘rta ta’lim maktabining

boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Bazarbayeva Dilfuza Kushbayevna

Annotatsiya: Ushbu dars ishlanma 1-sinf o‘quvchilari uchun foydalanishga mo‘ljallangan. Ko‘rgazmali qurollar va harakatli o‘yinlar bolada tasavvur dunyosini yanada kengaytiradi. Bolalarga hamma narsani muhayyo qilish emas ularga hayotda hamma narsaga erishishni o‘rgatish kerak. Ularga barcha sharoitni yaratish emas, bor e’tiborni qaratish kerak.

Kalit so‘zlar: son, baholash, eslab qolmoq, o‘qimoq, harakatli o‘yin.

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarning o‘tilgan mavzular, sonlar bo‘yicha bilimlarini mustahkamlash.

Tarbiyaviy: o‘quvchilar orasida do‘stona muhitni yaratish, bir-birlarini o‘zaro hurmat qilishga, tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar yaratishga o‘rgatish, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash;

Rivojlantiruvchi: mustaqil fikrlash qobiliyatlarini, sonlarga oid masalalarni to‘g‘ri bajara olish malakalarini rivojlantirish;

Tayanch kompetensiyalar:

TK1: fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olish;

TK2: axborotlarni statistik ma’lumotlar ko‘rinishlarning bir turidan boshqa ko‘rinishga o‘tkaza olish;

TK4: atrofdagilar bilan o‘zaro muloqot chog‘ida odob-axloq qoidalariga rioya qilish va guruhda ishlash.

Fanga oid kompetensiyalar:

FK1: sonlarni to'g'ri o'qish va yozish..

FK2: o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni o'quv vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qila olish

Dars tipi: mustahkamlovchi;

Darsning metodi: Guruhlarda ishlash, mustaqil ish, ko'rgazmali,

Darsning jihozi: darslik, AKT slydlar, tarqatmalar, topshiriqlari, didaktik ko'rgazmalar;

Darsning texnik chizmasi:

<i>Dars bosqichlari</i>	<i>Vaqt</i>
Tashkiliy qism.	3 daqiqa
Yangi mavzuni boshlashga hozirlik	12 daqiqa
Yangi mavzuni yoritish	14 daqiqa
Guruhlarda ishlash. Yangi mavzuni tahlil qilish	12 daqiqa
Darsni yakunlash	2 daqiqa
Uyga beriladigan topshiriqlar	2 daqiqa

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism:

a) salomlashish, b) tozalikni aniqlash,

d) davomatni aniqlash c) darsga tayyorgarlik ko'rish va dars rejasi.

Darsning shiori:

Matematika fani fanlar ichra shoh,

Uning sirlaridan bo'lingiz ogoh

Guruh ikkiga bo'linadi:

1-guruhimiz „Bilimdonlar”

2-guruhimiz “Chaqqonlar”

Dars davomida matematik topshiriqlarni bajariladi.

II. O`tilgan mavzuni mustahkamlash.

Har bir guruhga topshiriqlar beriladi.





BAHOLASH




III. Yangi mavzu.

O`quvchilarni bugungi mavzu bilan tanishtirish.

“1 dan 10 gacha sonlarning o`qilishi va yozilishi”

Darsda o`tilgan bilimlarni mustahkamlashga doir misol, masalalar yechish.

Eslab qoling !



0 raqami
"Diqqat mening nomim nol,
O'quvchim sen ogoh bo'l.
Yolg'iz tursam yo'qman men,
Sherik bo'lsa to'qman men.
Yozilishim qiyinmas
Dum-dumaloq chizsang bas!



1 raqami
Bir degan sanoq sonman,
Sanash uchun osonman.
Bitta yurak bitta bosh,
Bitta oy, bir quyosh,
Yozishga ham o'ng'ayman,
Qoziqchaga o'xshayman



2 raqami
Ikki degan nomim bor,
Ikki birdan men tayyor.
Ikki qo'l, ikki oyoq,
Ikki ko'z, ikki quloq,
Nimaga o'xshayman xo'sh
Xuddi ko'ldagi oqqush!



3 raqami
Uchta birman nomim uch,
Birlashganda bo'lar kuch.
Uchgacha sanayman der,
Shart o'ynagan har bir sher
Yozish uncha qiyinmas,
Tishlangan ikki kulcha.



4 raqami
Men to'rt degan raqamman,
Ikki ikkidan jamman.
Bo'lsa ikki juft o'rtoq,
To'rtta ulfat o'sha choq.
Yozishni mashq qil picha,
Bir oyog'i narvoncha!



5 raqami
Besh degulik nomim bor,
Raqamlar ichra ilg'or.
Bir-bir qo'shsa anchaman,
Qo'ldagi besh panjaman.
Yaxshi tirish yozmoqqa,
Sal o'xshayman qarmoqqa.




6 raqami
Beshdan keyin oltiman,
Raqamlarning oldiman
Ikki uchni qo'shsang bas,
Hech qachon esdan chiqmas.
Yozishni lozim bilmoq
Go'yoki oddiy ilmoq



7 raqami
Mening nomimdir yetti,
Endi demanglar mitti.
Oltidan bitta ko'pman,
Yetti yulduzman to'pman.
Chizginda kichik o'roq,
Beliga boyla belboq.



IV. Mustahkamlash





V. O`quvchilar bilimini baholash. Darsni yakunlash.

Darsga yakun yasash. O`quvchilar bilimini baholash.

IV. Uyga vazifa.

1 dan 10 gacha sonlarning o`qilishini o`rganib kelish va xatosiz yozish.